

## AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI

**Turumova Dildora Abdumannonovna**

Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment”  
kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: [dildoraturumova1985@gmail.com](mailto:dildoraturumova1985@gmail.com)

**Tolibboyev Quvonchbek G‘olib o‘g‘li**

Jizzax politexnika instituti talabasi

E-mail: [tolibboyevquvonchbek@gmail.com](mailto:tolibboyevquvonchbek@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada auditda tanlab olishning ahamiyati, qo‘llash maqsadi yoritilgan bo‘lib, auditorlik tanlash - auditorga xulosalar chiqarish hamda korxonaning moliyaviy holati, tizimlari va faoliyatini yaxshilash, auditorlik dalillarini olish va baholash imkonini berishi haqida tushuncha berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Auditorlik tanlash, statistik tanlash, nostatistik tanlash, reprezentativ tanlash, noreprezentativ tanlash, tasodifiy tanlash, sistematik tanlash, uyg‘unlashgan tanlash, ichki nazorat tizimi, ichki audit bo‘limi.

## СУТЬ ВЫБОРКИ В АУДИТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Турумова Дилдора Абдуманноновна**

[dildoraturumova1985@gmail.com](mailto:dildoraturumova1985@gmail.com)

Преподаватель кафедры «Экономика и менеджмент»  
Джизакского политехнического института

**Толиббоев Кувончбек Голиб угли**

Студент Джизакского политехнического института  
[tolibboyevquvonchbek@gmail.com](mailto:tolibboyevquvonchbek@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

В данной статье дается понимание важности аудиторской проверки, цель применения аудиторских процедур, а также аудиторская выборка дает возможность аудитору получить и оценить аудиторские доказательства, чтобы сформировать выводы и улучшить финансового состояния компаний, систем и эффективности.

**Ключевые слова.** Аудиторская выборка, статистическая выборка, нестатистический выборка, репрезентативная выборка, нерепрезентативная выборка, случайный отбор, систематический отбор, комбинированный отбор, система внутреннего контроля, отдел внутреннего аудита.

## ESSENCE OF SAMPLE IN AUDITING ACTIVITIES

**Turumova Dildora Abdumannonovna**

dildoraturumova1985@gmail.com

Teacher of the «Economics and Management»  
department of Jizzakh Polytechnic Institute

**Tolibboyev Quvonchbek G'olib o'g'li**

tolibboyevquvonchbek@gmail.com

Student of the Jizzakh Polytechnic Institute

### ABSTRACT

This article provides an understanding of the importance of an audit, the purpose of applying audit procedures, and audit sampling enables the auditor to obtain and evaluate audit evidence to form conclusions and improve the company's financial condition, systems and performance.

**Keywords:** Audit sample, statistical sample, non-statistical sample, representative sample, non-representative sample, random selection, systematic selection, combined selection, internal control system, internal audit department.

Bugungi kunda O'zbekistonda audit tizimi iqtisodiyot tizimining ajralmas qismiga aylandi. Audit - bu mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisobotini yoki u bilan bog'liq moliyaviy axborotni ushbu hisobot yoki axborotning qonun va boshqa normativ hujjatlarda muvofiqlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishidir. Auditorlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining yangi tahririda "Auditorlik faoliyati to'g'risida" gi Qonunida quyidagicha keltirilgan:

Auditorlik faoliyati deganda, auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va ushbu qonunning 3-moddasida nazarda tutilgan professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

Auditoring malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs - auditor hisoblanadi. Odatda auditor auditorlik faoliyatini amalga oshirishda Xalqaro

Auditorlik Standartlari (XAS) ga tayangan holda o‘z faoliyatini yuritadi. Auditorlik faoliyati standartlari - auditorlik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari va asoslarini tartibga soluvchi shuningdek, auditorlar uchun tekshiruv o‘tkazish borasidagi o‘z majburiyatlarini amalga oshirishga yordam berish maqsadida qabul qilingan umum qonun-qoidalar tizimidir.

Auditor ko‘p hollarda mijoz hisobotining ishonchliliga o‘rtacha darajada ishonch hosil qiladi. Bu ayrim hisob bo‘limlari bo‘yicha hisob yaxshi tashkil etilganligi, malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirayotganligi va avtomatlashtirilayotganligi bosh buxgalter yondosh hisob bo‘linmalari tomonidan ichki nazoratning yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi bilan, boshqalari bo‘yicha esa bunga zid bo‘lgan , ya’ni teskari ahvol vujudga kelganligi bilan izohlanishi mumkin.

Xuddi shunday, hisobot ko‘rsatkichlariga nisbatan ishonch hosil qilish darajasi o‘rtacha bo‘lgandagina auditorlik tanlash usullarini qo‘llash zarur.

530-sonli XAS «Auditorlik tanlash va testlashning boshqa tanlash amallari». Bunga ko‘ra: Tekshiruv namunasini tanlash va baholash jarayonida auditor e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan holatlar keltirilgan statistik va nostatistik uslublari bayon etilgan.

Auditorlik tanlash - bu alohida hujjatlar, yozuvlar va boshqalar ko‘rinishidagi tekshiriladigan to‘plamni shakllantirish uchun ma’lum bir qonun-qoidalarga asoslangan holda tanlab olinadigan elementlardir.


Tanlab tekshirish 2 xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- 1 Muvofiq ( mos ) kelishini tanlab tekshirish;
- 2 Mohiyatan tanlab tekshirish.

Muvofiq tanlab tekshirishning vazifalari. Tekshiriladigan hisobot davri ichida ichki nazorat me’yorlarining tez-tez buzilib turishini aniqlashdan iborat. Bunga ma’lum bir korxona rahbariyatining chetdan sotib olingan tovar moddiy zahiralar va chet tashkilotlari xizmatlari uchun taqdim etilgan schet-fakturalarni to‘lashga ruxsat etishi, korxonaga sotib olinayotgan tovar moddiy zahiralarni nomlari, miqdori, sifati bo‘yicha ularning tegishli hujjatlar bilan solishtirishni misol qilib olsak bo‘ladi.

Mohiyatan tanlab tekshirishning vazifasi. Ichki nazoratning buzilishini qiymat jihatdan o‘lchashdan iboratdir. Mohiyatan tanlab tekshirish miqdoriy tanlab tekshirish deb ham ataladi. Bunga buxgalteriya hisobi schyotlarining qoldiqlarini, dastlabki hujjatlardagi yozuvlarni tasdiqlash, uchinchi shaxsdan tasdiqlar olish, xo‘jalik faoliyatini ko‘rsatkichlarini tahlil qilish misol bo‘ladi.

#### 1-sxema



Tekshiruv maqsadlariga erishish uchun tegishli tekshiriladigan to‘plamni aniqlash zarur. Tekshiriladigan to‘plam - bu ma’lum elementlar yig‘indisidir. Auditda buxgalteriya yozuvlari (provodkalar), moddalar, yozuvlar to‘plam elementlari sifatida tanlab olinib, ushbu tanlash ular haqida ma’lumot berishi lozim. Tekshirilayotgan to‘plamni shakllantirish uchun mijoz-korxonaning barcha hujjatlari turli belgilar - hujjatlar turi, moddiy javobgar shaxslar, vaqtinchalik izchilligi va boshqalar bo‘yicha ma’lumotlar o‘xshash bo‘laklarga bo‘lib chiqiladi. Masalan, auditor ma’lum summadan yuqori debitor qarzlar haqidagi axborotlarni to‘playdigan bo‘lsa u holda debitorlar bilan hisob - kitoblarga taalluqli bo‘lgan, belgilangan summadan kam bo‘lman barcha buxgalteriya hujjatlari, yozuvlar va hokazolar to‘plami tekshiriladigan to‘plamga misol bo‘la oladi.

Auditni rejalashtirish bosqichida aniqlangan muhimlik va auditorlik riskining katta-kichikligiga bog‘liq holda auditorlik tanlash jarayoni qay darajada amalgalashini aniqlash zarur. Ushbu jarayon 530-sonli «Auditorlik tanlash va testlashning boshqa tanlash amallari» nomli XAS ga muvofiq tartibga solinadi. Shuningdek, ushbu standartda auditorlik tanlash maqsadi, mohiyati va usullari; tanlash tamoyillari, tanlash risklari va natijalarini baholash masalalari bayon etilgan.

Tekshiriladigan to‘plam deganda schyotlarning qoldiqlarini yoki muomalalarni tashkil etuvchi, schyotlar bo‘yicha oborotlarni tashkil etuvchi butun tekshiriladigan to‘plam haqida fikr shakllantirishga imkon beradigan auditorlik dalil-isbotlarini to‘plash uchun zarur bo‘ladigan elementlar tushuniladi.

Auditorlik tanlash uslubini shakllantirish uchun auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotning muayyan bo‘limini, tekshiriladigan to‘plamni tekshirish tartibini aniqlashi lozim. Tekshiriladigan elementlar ushbu to‘plamdan tanlab olinadi.

Auditorlik tanlashga qo‘yiladigan muhim talablardan biri - reprezentativlik, ya’ni tekshiriladigan to‘plamning barcha elementlaridan teng miqdorda tanlanish ehtimolining ta’milanishidir. Auditorlik tashkiloti ushbu talabni ta’minalash uchun quyidagi statistik usullarning biridan foydalanishi mumkin:

1. Tasodifiy tanlash. Tasodifiy sonlar jadvali bo‘yicha o‘tkazilishi mumkin.
2. Sistematisk tanlash. Bunda elementlar tasodifan tanlangan ma’lum bir sondan boshlab, har bir doimiy intervaldan tanlab olinadi. Interval yoki to‘plam elementlarining soniga qarab yoki ularning qiymatiga qarab tuziladi.
3. Uyg‘unlashgan tanlash. Tasodifiy va sistematisk tanlash usullaridan tarkib topgan uyg‘unlik ko‘rinishida bo‘ladi.

Har qanday tanlash (statistik yoki nostatistik) uchun auditorlik tashkiloti quyidagilarni bajarishi lozim:

- tanlashga tushgan har bir xatoni tahlil qilish;
- tanlash jarayonida olingan natijalarni barcha tekshiriladigan to‘plamga tarqatish;
- tanlash risklarini baholash.

Tanlovga tushgan xatolarni tahlil qilishda auditorlik tashkiloti birinchi navbatda ularning tavsifini aniqlashi lozim.

Auditorlik tanlash jarayonida olingan natijalarni auditorlik tashkiloti barcha tekshiriladigan to‘plamga tarqatishi lozim. Natijalarni butun to‘plamga tarqatish uslublari turlicha bo‘lishi mumkin, ammo hamma vaqt tanloving tuzilish uslublariga mos kelishi kerak. Agar tekshiriladigan to‘plam quyi to‘plamlarga bo‘lingan bo‘lsa, u holda natijalarni tarqatish ularning har biri bo‘yicha amalga oshiriladi.

Auditorlik tashkiloti tanlov hajmi (ko‘lami)ni aniqlash chog‘ida tanlash risklarini, yo‘l qo‘yiladigan va kutiladigan xatolarni aniqlashi lozim.

Tanlash riskining mazmuni shundan iboratki, tanlab olingan ma’lumotlar asosida tuzilgan, ma’lum masalaga doir auditoring fikri xuddi shu masalaning o‘zi bo‘yicha butun to‘plamni o‘rganish asosida tuzilgan fikrdan farq qiladi. Tanlash riski nazorat vositalarini test sinovidan o‘tkazishi kabi, schyotlar bo‘yicha qoldiq va oborotlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning to‘g‘riligini batafsil tekshirishda ham mavjud.

Auditorlik amaliyotida nazorat vositalarini test sinovidan o‘tkazish va schyotlar bo‘yicha qoldiq hamda oborotlarning tog‘riligini tekshirish uchun tanlash risklari birinchi darajali va ikkinchi darajali toifalarga bo‘linadi.

Nazorat vositalarini test sinovidan o‘tkazishda tanlash risklarining quyidagi turlari mavjud:

➤ birinchi toifa risklar-tanlash natijalari nazorat tizimining ishonchsizligidan dalolat berib, ayni paytda haqiqatan bu tizim ishonchli bo‘lganida to‘g‘ri gipotezani chiqarib tashlash riski;

➤ ikkinchi toifa risklar-tanlash natijalari nazorat tizimining ishonchsizligidan dalolat berib, ayni paytda ushbu tizim ishonchsiz bo‘lganda noto‘g‘ri gipotezani qabul qilish ehtimoli.

Schyotlar bo‘yicha qoldiq va oborotlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning to‘g‘riligini bat afsil tekshirishda quyidagi tanlash xatarlari mavjud:

➤ birinchi toifa xatarlar - tanlash natijalari tekshiriladigan to‘plamda jiddiy xatolar mavjudligidan dalolat berib, ayni paytda ushbu to‘plamda bunday xatolar yo‘q bo‘lganida to‘g‘ri gipotezani chiqarib tashlash xatari;

➤ ikkinchi toifa xatarlar- tanlash natijalari tekshiriladigan to‘plamda jiddiy xatolar yo‘qligidan dalolat berib, ayni paytda ushbu to‘plamda jiddiy xatolar mavjud bo‘lganida noto‘g‘ri gipotezani qabul qilish xatari.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, auditda tanlab olish ahamiyati kompaniyalarga kelajakdagi o‘sish va kengayish uchun tayyorgarlik ko‘rishda yordam berishi mumkin. Audit kompaniyaning moliyaviy holati, zaif tomonlari va yaxshilash imkoniyatlari haqida tushuncha beradi. Ushbu ma’lumotlardan foydalangan holda, kompaniyalar o‘zlarining o‘sish strategiyalarini moliyaviy imkoniyatlari bilan moslashtirishlari va kelajakdagi o‘sish uchun mustahkam poydevor yaratishlari mumkin. Bu kompaniyalarga ishonchli audit jarayoni bo‘lmaganida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy va operatsion risklardan qochishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Tuychiev A., Qo‘ziev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 620 b.
2. Qo‘ziev I., Tuychiev A., Xojiev M., Yakubov M. Vnutrenniy audit. “Iqtisod-Moliya”, 2019 g. – 421 str.”
3. Do‘s muratov R.D. Audit asoslari.-T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.- 612 s.
4. Audit. Darslik 1-jild. M.M.Tulaxodjaeva, Sh.I.Ilxomov, K.B.Axmадjonov va boshq.-T.: NORMA.-2008.-320 b.
5. Audit. Darslik 2-jild. M.M.Tulaxodjaeva, Sh.I.Ilxomov, K.B.Axmадjonov va boshq.-T.: NORMA.-2008.-320 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni 2020 yil 5 fevral.
7. Турумова Д. Банк назоратида ички ва ташки аудит ўтказишнинг аҳамияти //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 1013-1022.

8. Турумова Д. Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 640-645.
9. Turumova D. A. O ‘ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI–AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 608-612.
10. Avlokulov A. Z., Turumova D. A. Interpretation of Income and Expense in Accounting //International Journal on Integrated Education. – 2023. – Т. 6. – №. 3. – С. 206-209.
11. «Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi, tahlil va auditni rivojlantirishning dolzARB masalalari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar toplami №12 aprel 2023 y. 331-332 b.